

USMON AZIM IJODIDA XALQ QO‘SHIQLARI IFODASI XUSUSIDA

Feruza Sultonqulova

Termiz davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10962491>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Usmon Azim lirikasidagi xalq og‘zaki ijodi ta‘sirida yaratilgan turkum qo‘shiq she‘rlar tadqiq etiladi. Mazkur she‘rlardagi badiiy tasvir va ifoda vositalari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: she‘riyat, folklor, qo‘shiq janri, folklorizm, mahorat, “Baxshiyona”, alla, stilizatsiya.

ON THE EXPRESSION OF FOLK SONGS IN THE CREATION OF USMAN AZIM

Abstract. In this article, a series of song poems created under the influence of folk oral creativity in the lyrics of Usman Azim is studied. Artistic images and means of expression in these poems are analyzed.

Key words: poetry, folklore, song genre, folklorism, skill, "Bakhshiyona", alla, stylization.

О ВЫРАЖЕНИИ НАРОДНЫХ ПЕСЕН В ТВОРЧЕСТВЕ УСМАНА АЗИМА

Аннотация. В данной статье исследуется серия лирических стихотворений, созданных под влиянием народного устного творчества на лирику Усмана Азима. Анализируются художественные образы и средства выразительности в этих стихотворениях.

Ключевые слова: поэзия, фольклор, песенный жанр, фольклоризм, мастерство, «Бахшиена», алла, стилизация.

She‘riyat hamisha xalq og‘zaki ijodidan oziqlanadi. Xalqimiz o‘tmishini, milliy qadriyat, urf-odatlarini asrlar osha avlodlarga yetkazib berishda xalqimizning betakror ijodi bo‘lgan folklor durdonalarining o‘rni beqiyosdir. Ma‘lumki, azal-azaldan yozma adabiyot folklor ta‘sirida rivojlanib kelmoqda. “Kishilarning uzoq asrlar davomida to‘plagan turmush tajribasini o‘zida mujassamlashtirgan xalq og‘zaki ijodida hayot haqiqati obrazli ifodalangan. Uzoq ijtimoiy-tarixiy voqelikni o‘zida aks ettirgan folklor namunalarining ijodkori xalqdir”[1:57].

O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim she‘riyati[2:353] xalq og‘zaki ijodidan doimo suv ichgan, uni yozma adabiyotga yangicha ruh bilan sug‘organ she‘riyatdir. Shoir ijodining dastlabki yillaridayoq xalq og‘zaki ijodining go‘zal namunalari bo‘lgan ertak, afsona va dostonlardagi folklor motivlariga murojaat qiladi. Shoir she‘riyatining manbalaridan biri Ona tabiat bo‘lsa, ikkinchisi xalq og‘zaki ijodidir.

Shoir ijod olamiga kirib kelgan o‘tgan asrning 70-80 yillarida Haq va haqiqatni so‘zlay olish uchun folklor motivlaridan foydalanishi, yozma adabiyotning xalq og‘zaki ijodi ta‘sirida, albatta, muallifning ma‘lum maqsad-muddaolari ifodasi oddiy va murakkab folklorizmlarda yorqin namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Shoirning “Baxshiyona” turkumi ” – xalq dostonlari, “Chapani yoxud jaydari she‘rlar” – xalq qo‘shiq-lari, “Alpomishning qaytishi” – “Alpomish” dostoni, “Tosh pari”, “Balladalar”i (Shoir “Saylanma”siga kiritilgan 15 ta ballada)ga ertak motivlari asos qilib olinadi.

Shoirning “Sog‘inch”(2007) she‘rlar kitobidan o‘rin olgan “Qo‘ng‘irot ayollarining qo‘shiq-laridan” turkumi o‘zbek folklorining go‘zal namunasi bo‘lgan ayollar qo‘shig‘ining

yoza adabiyotdagi badiiy jozibasining yorqin ifodasidir. Ma'lumki, qo'shiq xalq og'zaki ijodining qadimiy va sarmahsul turlaridan biridir. Xalq qo'shiqlarida xalqning ichki kechinmalari, orzu-istaklari, o'y-xayollari o'z aksini topadi. Uning yuqoridagi turkumi ham o'ziga xosdir.

Shoir o'zbek xalq ayollarining og'zaki ijod namunalari guldastasini yoza adabiyotda qayta ishlash asnosida, avvalo, milliy qadriyatlarimizni va vatanparvarlik kabi yuksak fazilatlarini aks ettirsa, ikkinchidan ayol qalbining nozik his tuyg'ulari, ko'ngil kechinmalari, dardu hasratlarini ifodalaydi.

Shamollar oqib yotar, alam yor.
Eshikni qoqib yotar, alam yor,
Hijron degan bir ilon, alam yor
Yurakni chaqib yotar, alam yor [3:186].

Ketmonchopdi kemtigi,
Yorim kelar entikib.

Kulib chiqay yo'liga,
Olachadan to'n tikib[3:187].

Ushbu turkumda garchi she'rlar ayollar kechinmalarini ifodalasa-da, asosiy voqealar sharhi, undagi she'rlar ayollar nomidan "Baxshiyona" turkumining bosh qahramoni Elbek baxshi tilidan ijro etilgan. Mazkur turkum mana shu jihatdan "Baxshiyona" turkumi tarkibiga kiradi. Biroq turkumni birlashtirib turgan ayollar qo'shiqlari har biri alohida yettita qo'shiqdan iborat bo'lib, unda xalq qo'shiqlari va dostonlarga xos ifoda yo'sinda o'zaro yaqin uyg'unlik kuzatiladi. Yuqorida ketirilgan parchadagi misralarda ohangdoshlik xalq qo'shiqlaridagi ritmga mos bo'lib, she'rning ta'sirchanligi va jozibasini oshirgan. Qahramon ruhiy kechinmalari ifodasini milliy ruhda berishda o'zbek ayollaridagi sirlilik va nazokat tasviri ham xalqona tarzda ifodalangan.

Shuningdek, turkumda voqealar rivoji, qahramonlar tavsifi dostonga xos saj' usulida berilgan: "Oyyorug' – eshigidan sovchilarini kirgizmagan, uyining oldidan yigitlarni yurg'izmagan qiz – birov bilan ishi yo'q, faqat "oh" urar ekan" [3:186].

"Ayollarning biz eshitmagan qo'shiqlari ko'p der edi Elbek baxshi. Erkaklaring tiliga tushsa qo'pol tortadi deb bizga eshittirishmaydi" [3:188].

Mingsuluvning so'zi bir suluv, o'zi bir suluv qiz bo'l-gan ekan. Bir to'yda "aytishsam, Kunto'ra bilan aytisha-man", deb qolibdi. Do'mbirani sozlab, yuragi og'rigan so'naday bo'zlab, aytishuvni boshlabdi [3:190].

Mazkur turkumga tanlangan qahramonlar ismlari ham xalq dostonlari qahramonlari nomiga yaqin: Oyyorug', Qorasoch, Norbibi, Ko'nglioy, Mingsuluv, Mingchechak, Kunto'ra, Turmamat, Mingliyozi kabi.

"Qo'ng'irotd ayollari qo'shiqlari" turkumi ayollar qalbining nozik his tuyg'ulari, ko'ngil kechinmalarini tasvirlashda xalq qo'shiqlaridagi kabi badiiy tasvir va ifoda vositalariga boyligi bilan ajralib turadi. Turkumdagi qo'shiqlarning har birida mubolag'a, sifatlash, metafora, o'xshatish, jonlantirish, takrorlar va alletratsiyadan unumli foydalangan:

Terak uchida osmon, alam yor,
Yulduzlar aytar doston, alam yor.

(mubolag'a, metafora)

Bog' ichinda gul-u barg ochdi daraxt,
Gullariga to'y magay ko'zim qarab.
Bog' aro, men ham nechun gul bo'lmayin,
Kelasan bahor kabi — ko'ngil talab gul anqir.
[3:189].

Har qaysi ijodkor dunyoni ko'rishda, uni his qilishda qayta yaratish, ya'ni ijodiy jarayonda metaforaga murojaat qiladi[5:537]. Xalq qo'shiqlari ta'sirida yaratilgan yuqoridagi she'riy parchalarda metaforalar yetakchiligi kuzatiladi. She'rlarning nasriy bayonida ham asosan metafora, o'xshatish, takror va alliteratsiya qo'llaydi: *“Bir kun bir daryo bo'yida, tolning tagida soyalab yotganimda, bir qizgina ko'zi yoshlanib, dunyoni ko'rmay, narigi qirg'oqqa tumandagi oyday chiqib keldi”*. *“Qarasam, Olloyor yasovulning qizi Qarosoch. U daryoga qarabmi, dunyoga qarabmi, bir qo'shiq aytdi...”*

“O'ziyam Oyyorug' osmondan tushganday qiz ekan — na quvishgani bor ekan, na tug'ishgani! Faqat ko'ngli bor ekan, bechora qizni, ko'ngli!”

Mazkur turkumdagi she'rlar folklorizmlarning namunasi bo'lib, mavzu jihatdan shoir individual uslubining betakrorligini namoyon ettiradi.

Shuningdek, Usmon Azim ijodida xalq qo'shiqlarining eng sermahsul va takrorlanmas turi bo'lgan alla janridagi qo'shiqlarning stilizatsiyasini ko'rish mumkin. Shuni alohida aytish mumkinki, avvalo, alla umummilliy qo'shiqdir. Chunki har bir xalq og'zaki ijodida mazkur qo'shiq ijro qilinadi. Har bir yurtda onalar farzandiga bo'lgan cheksiz mehr muhabbatini o'z qalbining pokiza diltortar navolari bilan jajjigina farzandini orom toptiradi. Usmon Azimning “Baxshiyona” turkumiga jami 3 alla kiritilgan bo'lib, ularning ikkitasi “Otamning enasi – Guldona momo” va “Enamning enasi Hayitgul momomning allasi” deb Elbek baxshi tilidan va bittasi “Elbek baxshining kelini Gulsum” tilidan aytilgan, ularning har biri alohida badiiy xususiyatlarga ega. “Guldona momomning allasi”da:

Momosi: “Atir bo'yli Ma'danim” deb egildi,
Vatan ichra eng go'zal Vatanim deb egildi alla.

“Enamning enasi Hayitgul momomning allasi”da bolaga ezgu niyatlar tilagan lirik qahramonning qalbida ayol mehr-muhabbati cheksizligi o'ziga xos tasvirlanadi:

Oy mo'ralar eshikda,
Tangrim uxlar beshikda — Allayo, alla.
Yulduzday so'nmas bo'lg'in,
Eldayin o'lmas bo'lg'in — Allayo, alla.
Yig'lasam yoshimda tur,
Vatanday boshimda tur – Allayo, alla [.252.].

Har ikkala alladagi farq bandlar sonida seziladi (5 misra, 3 misra). Bu xalq qo'shiqlariga yaqin yengil vaznda, ya'ni misralardagi bo'g'inlar soni xalq og'zaki ijodidagi alla janriga xos 7-bo'g'indan iborat. Biroq, har ikkala allada ham “Baxshiyona” turkumidagi boshqa she'rlardagi kabi mubolag'a, o'xshatish, tashxis, alleteratsiya, saj' kabi badiiy san'atlar yetakchilik qiladi.

Xalqimizning go'zal urf-odatlarini satrlar bag'riga shunday singdirib yuborilganki, beixtiyor o'quvchini chaqaloqning “beshik”ka solganda yaxshi niyatlar bilan “enasi”, “otasi”, “bobosi”, “momasi” kabi yaqinlarining ezgu tilaklarida vatanparvarlik tuyg'usi mujassam ettirgani zavqu

shavq beradi. O‘zbek xalqida “Bola yo‘rgaklash” savobligi kabi ulug‘ amal esa faxr hissini uyg‘otadi. Shoir vatanni sevish, uni asrash ham aslida inson tug‘ilganidayoq singdirilishi lozim degan badiiy maqsadni alla janriga murojaat qilish orqali yanada yorqin ifoda ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tgan asrning 80-yillar ijodida baxshiyona ruhdagi she‘rlari bilan o‘zbek adabiyotida yangi bir yo‘nalish yaratilishiga turtki bo‘lgan shoir Usmon Azim ijodida xalq qo‘shiqlari o‘z mazmunini yo‘qotmay, yangicha ohanglarda jarang sochadi. Shoir betakror uslubi orqali xalq og‘zaki ijodining gultoji bo‘lgan qo‘shiqlarning yashovchanligini ta‘minlab, yangi-yangi mavzudagi ijod namunalari yaratishga asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan.

REFERENCES

1. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, – 2017. – 58- b.
2. Sultonqulova, F. (2021). Metaphors of colors in Usman Azim poetry. ISJ Theoretical & Applied Science, 02 (94), 350-353
3. Usmon Azim. Sog‘inch. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy enskilopediyasi”, 2007. – 200 b.
4. Usmon Azim. Kuz. –Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2001. – 448 b.
5. Usmon Azim. Sog‘inch. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy enskilopediyasi”, 2007.–B.172.
6. Sultonqulova, F. (2020). Metaphorical images in Osman Azim poetry. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), 537-539.
7. Yuldashev, N.T. (2019). Tradition and novelty in Chulpan poetry. ISJ Theoretical & Applied Science, 12(80), p.576.